

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70210701–Haykaltaroshlik
magistratura mutaxassisligining***

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "___" _____dagi _____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	8
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	8
	Bibliografik ma'lumotlar	9
	Kelishuv varag'i.....	10

1. Umumiy tavsifi

70210701 – Haykaltaroshlik, turlari bo'yicha magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining meyoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 70210701 – Haykaltaroshlik, turlari bo'yicha magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, sohaga oid davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar va kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalarida ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.

- Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- Davlat va nodavlat tashkilotlari, korxonalar va kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va sohaga oid korxonalarda haykaltaroshlik turlari bo'yicha mutaxassis.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- Ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- konsalting xizmati faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

70210701 – *Haykaltaroshlik, turlari bo'yicha* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Mutaxassislikka oid yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni tahlil qilish;

haykaltaroshlik sohasiga oid zamonaviy rivojlantirish negizida amaliy masalalarini yechish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash;

o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari, amaliy va fundamental grantlar mavzusi bo'yicha jahon haykaltaroshligida foydalanilayotgan va ijobiy natijalarga ega jarayonlarni tadqiq qilish;

haykaltaroshlik turlarini o'rganish, ijodiy asarlar yaratish, haykaltaroshlik asarlarini ta'mirlash sohaga oid ijodiy va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq qilish, milliy va zamonaviy haykaltaroshlik san'ati sohasidagi obektlarni tahlil qilish;

haykaltaroshlik asarlari loyihasini tizimli yondashuv asosida yaratishni takomillashtirish;

respublika va xorijda chop etilgan haykaltaroshlik sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

haykaltaroshlik asarlarini badiiy tahlil qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

haykaltaroshlik sohasida texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirishi;

haykaltaroshlik sohasida tashkilot, korxonalaridagi rassom va dizayn sohasiga oid bo'lgan bo'limlarni boshqarish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi

borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etishi;
zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratishi va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqishi;

ijodiy guruh faoliyatini tashkil qilish, texnik xavfsizlik qoidalarini bilish va amal qilish, badiiy estetik didni rivojlantirish va uni tatbiq qilish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqishi va tatbiq qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat bo'yicha o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Konsalting xizmati faoliyati:

haykaltaroshlik sohasida loyihalarini rejalashtirish va ishlab chiqish, mijozlarning talablariga muvofiq dizayn kontseptsiyalarini yaratish, sohaga oid ashyolarni tanlash va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berish;

haykallarni yaratish uchun kerakli texnik usullar va jarayonlar haqida maslahat berish, maxsus uskunalar va vositalardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar, loyiha amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan me'yoriy va texnik hujjatlar tayyorlash;

loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va xarajatlarni baholash, moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish bo'yicha maslahatlar berish, grantlar va moliyallashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

loyiha jarayonini boshqarish va nazorat qilish, vaqt jadvalini tuzish va bajarilishini nazorat qilish, ishlarni tashkil etish va koordinatsiya qilish;

seminarlar, treninglar va mahorat darslari o'tkazish, haykaltaroshlik sohasidagi yangi tendentsiyalar va texnologiyalar haqida ma'lumot berish, haykaltaroshlar uchun o'quv dasturlarini tashkil etish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha konsalting (konsultativ konsilium) xizmatlarini ko'rsatish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, badiiy-ijodiy tahlil qila olishi, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish va kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish, malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakterini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi;

haykaltaroshlik sohasiga oid axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilish va faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

haykaltaroshlik sohasida loyihalarni badiiy taxlil qilish, ashyolarga badiiy ishlov berish, badiiy kompozitsiyalar yaratish, haykaltaroshlik asarlarini ta'mirlash, haykaltaroshlik asarlarini ishlab chiqarishi;

haykaltaroshlik asarlarini ishlab chiqarish texnologik jarayonlari bo'yicha texnik reglament, texnologik, texnik jihatdan tartibga solish va me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va professional faoliyatida ulardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

haykaltaroshlik sohasidagi korxonaning maqsadi va strategiyasiga muvofiq uning xususiyatlari va mijozlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda sifat siyosatini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar va chora-tadbirlar ishlab chiqishi;

an'anaviy haykaltaroshlik ustoz-shogird tizimi asosida takomillashtirish, estetik va badiiy didni shakllantirish, haykaltaroshlik asarlarini ta'mirlash, haykaltaroshlik asarlarini o'rgatish va ularni amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilish, ijtimoiy va ishlab chiqarish sohalaridagi mehnat faoliyatlari uchun mustahkam zamin tayyorlash;

ishlab chiqarishda muammolarning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish hamda ular takrorlanishining oldini olish choralarini ishlab chiqish uchun mijozlar, ichki bo'limlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot qilishga qodir bo'lishi;

haykaltaroshlik sohasida ishlab chiqariladigan ijodiy ishlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish;

mutaxassislik doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim muassasalari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida doktorant yoki mustaqil izlanuvchi sifatida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi, tadqiqot etilishi;

magistratura mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kasb faoliyatining ko'zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondasha olishi;

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00.		Majburiy fanlar	1620	54	
1.01.	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02.	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03.	ChBY1320	Chizmatasvirda badiiy yechim	600	20	1,2,3
1.04.	HPBY1320	Haykal plastikasining badiiy yechimi	600	20	1,2,3
1.05.	KBY1306	Kompozitsiyada badiiy yechim	180	6	1,2,3
2.00		Tanlov fanlari	360	12	1,2,3
		<i>Tanlov fanlari</i>	360	12	1,2,3
	Kvalifikatsiya:	Pedagog -tadqiqotchi, haykaltarosh-rassom			
		Jami	1980	66	
3.00.		Ilmiy faoliyat	1620	54	1,2,3,4
		HAMMASI	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv tsikli, proyektsiya, aksonometriya, analogiya, xajmiy-fazoviy yechim, mahobatli haykaltaroshlik, dekorativ haykaltaroshlik, dastgohli haykaltaroshlik, raqamli haykaltaroshlik, zamonaviy abstrakt haykaltaroshlik, mayda plastika, janr, yo'nalish, byust, memorial taxtasi, yodgorlik taxtasi, kapitel, relyef, barelyef, gorelyef, kontrrelyef, medal, plaketka, pul tangalar shakllarining plastik yechimi, kompozitsiya, postanovka, komponovka, perspektiva, umumiylik, yaxlitlik, stek, karkas, paklya, sovus, sangina, retush, propotsiya, planshet, qoralama, eskiz, dinamika, simmetriya, assimetriya, ritm, shakl, o'lcham, hajm, fazoviy yechim, fazoviy tasavvur, fazoviy chuqurlik, etyud, faktura, kolorit.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti


 Rektor *A. Mirzoraximov* A.Mirzoraximov
2024-yil " " _____
M.O:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti


 Rektor *N. Sayfullayev* N.Sayfullayev
2024-yil " " _____
M.O:

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi-huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

 Direktor *M. Boltabayev* M.Boltabayev
2024-yil " " _____
M.O:

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

 Rais *A.V. Nuriddinov* A.V.Nuriddinov
2024-yil " " _____
M.O:

OOO "VIP-ART"

Badiiy metal quyish korxonasi

Direktor *O'.Q. Asrorov* O'.Q. Asrorov
2024-yil " " _____

